

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Yunusmetova Nasiba Satimbekovna

*Sirdaryo viloyati pedogoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta'lim samaradorligini oshirish:muammo va yechimlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy dastur, fan, texnika, bilim, malaka, ko'nikma, kompetensiya, ta'lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogika, psixologiya, metodika, predmet, iqtisodiyot, o'quv jarayoni.

Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-qarori orqali O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish va xalq ta'limini jahon andozalari darajasida tashkil etishga qaratilgan vazifalar keltirilgan. 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"dagi, 2022-yil 11-mayda "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan tasdiqlandi. Ilg'or Xorijiy davlatlarning tajribalariga asoslangan Yangi avlod darsliklari - har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan kutiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o'tishni va o'quvchi qanday natijalarni qo'lga kiritishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirishda yo'nalish beruvchi hujjatdir.

2023-2024 o'quv yilda yaratilgan Ilg'or Xorijiy davlatlarning tajribalariga asoslangan Yangi avlod darsliklarida XXI asr ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan 4-K deb nom olgan ko'nikmalar belgilangan.

Kollaboratsiya: darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

Yangi darsliklardagi topshiriq va vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarimizda boshlang'ich sinflarda bilimni baholaydigan PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlarning masalalarini yechish malaka ko'nikmasi shakllanadi.

Bir qator ilg'or xorijiy davlatlarda informatika fanini kichik yoshdan o'qitish yo'lga qo'yilgan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo mamlakatlarning ko'pida dasturlash asoslarini 1-sinfdan boshlab o'qitiladi. Bizda ham shu yangilikni joriy qilish uchun ilg'or xorijiy tajriba asosida 1-sinf uchun yangi zamonaviy informatika darsligi yaratildi.

Darsliklar zamonaviy axborot jamiyatiga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakani shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish uchun ijodiy fikrlash, muloqot qilish va samarali hamkorlik kabilarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Ushbu ko'nikmalarni egallash o'quvchilarga o'zgaruvchan dunyoda faol ishtirok etish, muammolarni hal qilishda analitik yondashuvni qo'llash, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishga tayyor bo'lishni o'rgatadi.

2023-2024 o'quv yilidan boshlab maktablarda o'qitiladigan kompyuter savodxonligi darslari 1-sinfdan haftasiga 1 soat o'tilishi ko'zda tutilgan. Informatika darsida o'quvchilar kompyuter bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlashi shart emas. Darsliklarda asosan axborot nimaligi, algoritm tushunchasi, amallar ketma-ketligi kabi bazaviy bilimlar aks etgan. Ya'ni yuqori sinflarda informatika fanini tushunish uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich tushunchalar berilgan.

Nemis [muhandisi](#), iqtisodchisi va [Jahon Iqtisodiy Forumi \(WEF\)](#) asoschisi Klaus Shvabning 2016 yildagi To'rtinchi sanoat inqilobi nomdagi kitobida bayon etilgan kontseptsiyasida ta'kidlashicha yaqin kelajak kiberfizik tizimlarni ishlab chiqarishga shu jumladan kundalik hayotda, mehnat qilishda va bo'sh vaqtni samarali tashkil etishida keng tatbiq qilish bilan belgilanadi.

Iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va hayot darajasi va sifatini oshirishning jozibadorligi tufayli vujudga kelgan to'rtinchi sanoat inqilobi beqarorlikning kuchayishi va jahon tizimining qulashi xavfini tug'diradi, shuning uchun uning boshlanishida insoniyat javob berishi kerak bo'lgan qiyinchilik sifatida qabul qilinadi.

Hozir sun'iy intellekt hayotimizga faol kirib kelyapti. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari sun'iy intellekt bilan muloqotga kirishib, o'zini qiziqtirgan savollarga javob olayotgani bor gap. To'g'ri savol berish, muloqot qilish holatlariga o'zimiz ham guvohmiz. Ushbu jarayon ham bolalarda texnologiyadan foydalangan holda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kelajak avlodni tez o'zgarib borayotgan raqamli dunyoga tayyorlash va ta'lim

jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalashtirish shuning uchun ham suv va havodek zarur.

Bu o'zgarishlar yanada samarali, zamonaviy va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishidan umid qilib turibmiz. Chunki bu maktab o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, chuqur bilim va ko'nikmalarni egallashi uchun samarali yo'l bo'lib ko'rinyapti.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular ilmiy izlanishlar, alohida o'qituvchilar va butun jamoalarning ilg'or pedagogik tajribasi natijasidir. Bu jarayon o'z-o'zidan bo'lishi mumkin emas, uni boshqarish kerak.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni o'zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlantiruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil SOROS xalqaro ochiq jamiyatining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi.[1]
2. Tulenov J. Gafurov Z. Falsafa. Toshkent«O'qituvchi» 2011.[2]
3. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. Toshkent-2009.[3]
4. Farberman B.L.Musina R.G.Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. Toshkent-2012 yil[4]
5. 2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi - // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>.